Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

FORTEPIANO DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY-BADIIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Dilfuza Rustamovna Xodjiyeva*
Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti
✉ d.r.xodjiyeva@buxdu.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada, fortepiano darslarida o'quvchilarning musiqiy-badiiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Dars shakllari, o'qitish usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchilarning musiqiy tafakkuri, estetik idroki va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

fortepiano ta'limi, musiqiy-badiiy kompetentlik, pedagogik imkoniyatlar, o'qitish usullari, dars shakllari, musiqiy tafakkur, estetik idrok, ijodkorlik.

DOI: 10.5281/zenodo.22053900

KIRISH.

Musiqiy qobiliyat-shaxsning musiqiy faoliyatida namoyon bo'luvchi emotsional tomonlari va qobiliyatlarining o'ziga xos uyg'unligidir. Musiqiy qobiliyatning ahamiyati shundaki, u insonni axloqiy-estetik va ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi, psixologik madaniyatni rivojlantiradi, mustaqil ijodga layoqatli barkamol, yetuk shaxsning shakllanishi uchun ma'naviy poydevor yaratadi [1]. O'quvchilarni bilim olish borasidagi psixik jarayonlarga undab borish, aqliy rivojlanishiga mos pedagogik vositalar bilan faollashtirish, ularning umumiy musiqiy qobiliyatlarini rivojlanishi o'qituvchi faoliyatiga bog'liqdir. Shuning uchun ham qobiliyatli o'quvchilarni musiqa va san'at orqali tarbiyalab, ushbu sohalarni keng ko'lamda rivojlantirish maqsadida bolalar musiqa va san'at maktablari respublikamizda ko'paymoqda.

METODOLOGIYA.

Musiqa va san'at maktablarining fortepiano darslarida o'quvchilarning musiqiy-badiiy ta'limini shakllantirish mexanizmlarida **dars shakllari, o'qitish usullari** hamda **pedagogik texnologiyalarning** maqsadga muvofiq qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etib dars samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning musiqiy tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari va estetik idrokini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Dars shakllari: O'quvchilar faoliyati ta'lim mazmunini o'zlashtirishning turli shakllarida amalga oshiriladi. Zamonaviy fortepiano ta'limi jarayonida dars shakllarini ilmiy asoslangan didaktik maqsadlarga muvofiq tanlash ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardandir. Dars shakllari pedagogik mexanizm sifatida o'quvchilarning musiqiy didi, tafakkuri, ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'qitishning turli shakllari mavjud bo'lib, ular o'quvchilar soni, mashg'ulot vaqti va joyi, uni amalga oshirish tartibiga ko'ra turlicha bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, fortepiano ta'limida **individual dars, integratsiyalashgan dars, ijodiy loyiha (sinf-konsertlari) va tahliliy dars** shakllari mavjud bo'lib, bular barchasi tizimli olib boriladi [2].

Individual darslar: individual darslar, o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, psixofiziologik xususiyatlari, musiqiy qobiliyatlari va ijodiy ehtiyojlarini hisobga olib, tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Ushbu dars shakli differensial va shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar asosida amalga oshirilib, har bir o'quvchining individual qobiliyatini rivojlantirishga, qolaversa, musiqiy eshitish, ijrochilik mahorati, asarni badiiy ifoda etish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan dars shaklidir. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, mazkur dars shakli orqali o'quvchining ijrochilikdagi kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, o'qituvchi tomonidan shunga mos o'qitish metodlari ishlab chiqiladi [3].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, fortepiano pedagogikasida H.Neuhausning "Pianizm san'ati" nomli asarida ham, fortepiano ijrochiligida individual yondashuv muhim ekanligi alohida ta'kidlanib, pedagogning o'quvchi bilan ishlash uslubini to'g'ri shakllantirish bo'yicha o'z qarashlari mavjud. Bunga ko'ra, individual darslar, har bir ijrochining ijodiy erkinligini oshirishga, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, qolaversa, musiqani chuqur his qilishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan fortepiano darslari: fortepiano darslari avvalgi boblarda aytib o'tilganidek, musiqa nazariyasi, solfedjio, musiqa adabiyoti fanlari bilan integrativ tarzda olib boriladi. Ushbu dars shakli fanlaroro integratsiya tamoyiliga asoslanib, o'quvchida yaxlit badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladigan dars shaklidir.

Integratsiyalashgan darslarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: a) musiqiy asar mazmunini keng madaniy-kontekstual muhitda idrok etishga xizmat qiladi; b) musiqiy obrazlarning mazmunini chuqurroq anglashga o'rgatadi; jumladan, fortepiano jo'rnavozlik darsi adabiyot fani bilan integratsiya qilinganda, o'quvchi jo'rnavozlikda ijro etayotgan romans, kantata, opera janrlaridagi asarlarning musiqasi bilan bir qatorda, matnini ham o'zaro uyg'unligini tahlil qiladi. Natijada, idrok etish ko'nikmasi rivojlanadi.

Ijodiy loyiha (sinf-konsertlari) darslari: Ijodiy loyiha darslari asosan o'quvchilarning o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy-ijodiy faoliyat orqali namoyon etishga yo'naltirilgan ta'lim shakli bo'lib, unda o'quvchilar, I-yarim yillik oxiri va II-yarim yillik oxirida akademik konsertlar orqali chiqishlar qilishadi. Ushbu dars shakli faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga asoslanib, bunda o'quvchilar mustaqil o'zlari musiqiy asar tanlash, jamoa bilan ishlash, musiqiy g'oyani badiiy talqin eta olish hamda, asosiysi sahnada erkin ijro etish ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Kichik konsertlarda ishtirok etish orqali, o'quvchida sahna madaniyati rivojlanadi. Kelajakda ko'rik-tanlov, festivallarda hayajonni yengib, faol ishtirok etish imkonini beradi. Qolaversa, konsertlar ta'lim jarayonining yakuniy natijalarini baholash va refleksiya qilish uchun amalga oshiriladi.

Tahliliy darslar: Tahliliy darslar, musiqiy asarlarni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, asarning shakliy tuzilishi, janr xususiyatlari, musiqiy til vositalari va obrazlar tizimini tahlil qiladigan dars shaklidir. Ushbu dars jarayonida musiqiy asarlarni taqqoslash, stilistik xususiyatlarini aniqlash va badiiy obrazlarni ochib berish natijasida, o'quvchida musiqiy did shakllanadi, analitik fikrlash, ongli idrok etish va estetik baholash kompetensiyalari rivojlanadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarining mutaxassislik darslari jarayonida, **o'qitish usullarini** to'g'ri tanlash o'quvchida nafaqat texnik jihatdan balki, musiqani chuqur anglash, mustaqil tahlil qila olish va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash uchun muhim vositadir. Quyida fortepiano ta'limi jarayonida keng qo'llaniladigan asosiy o'qitish usullarini tahlil qilamiz:

1.Tinglash va tahlil qilish usuli: Fortepiano ta'limida tinglash va tahlil qilish, musiqa asarini ongli idrok etishga o'rgatadigan usuldir. Mazkur usul orqali o'quvchi asarning obrazli mazmuni, shakli, ohangiy tuzulishi, ritmik xususiyatlari va dinamik rivojini idrok etishga o'rganadi. Tinglash jarayonida o'qituvchi turli bastakorlarning asarlarini audio-video yozuvlar orqali eshittiradi, asarning xarakteri, kayfiyati va g'oyaviy mazmunini so'zlab beradi. Undan so'ng, o'quvchi bilan birgalikda asar nazariy tahlil qilinadi. Bu usul orqali o'quvchining nafaqat musiqiy eshitish qobiliyati, balki, o'zi ijro etayotgan asarga ongli yondashadi va asarni mazmunan to'g'ri ifodalashga xarakat qiladi.

2.Taqqoslash usuli: Ushbu usul o'quvchilarda tahliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Darsda o'qituvchi taqqoslash usuli yordamida bir bastakorning turli asarlarini, bir asarning turli ijro variantlarini yoki turli bastakorlarning xilma-xil uslublarini o'zaro taqqoslash orqali tahlil qilishadi. Jumladan, bir asarni ikki xil ijrochi uslubida tinglash orqali o'quvchi bu asarning ijro uslubi, tempi, dinamika va ifodaviy vositalaridagi

farqlarni o’zi taqqoslab, aniqlay olish ko’nikmasiga ega bo’ladi. Shu nuqtayi nazardan, o’quvchi mustaqil xulosa chiqarishga va o’z ijrosiga tanqidiy baho berishga o’rganadi. Bu orqali o’quvchida ijrochilik madaniyati shakllanadi.

3.Assotsiativ fikrlash usuli. Ushbu usul musiqani boshqa san’at turlari va hayotiy obrazlar bilan bog’lashga asoslanib, bunda o’quvchi ijro etayotgan asaridagi obrazlarni so’z, rang, tabiat manzaralari, harakat yoki his-tuyg’ular bilan uyg’unlashtirgan holda ijro etadi. Jumladan, asar tinglanayotganda o’quvchi tasavvurida qanday narsalar paydo bo’layotganligi va uning qanday ko’rinishda ekanligi haqida suhbatlashib o’qituvchi tomonidan tasavvurlar boyitiladi. Assotsiativ fikrlash usuli boshlang’ich sinf o’quvchilari bilan ishlashda samarali hisoblanib, o’quvchining tasavvurini boyitadi, ijro etayotgan asarini chuqurroq his etib, ifodaviylikni kuchaytirishda yordam beradi.

4.Improvizatsiya usuli: Improvizatsiya-bu ijrochining erkin ravishda ohanglar yaratishi, tanlangan ritm yoki garmoniya asosida mustaqil musiqiy fikrini, musiqiy tafakkuri va his-tuyg’ularini erkin ifodalash shaklidir [4]. Improvizatsiya o’quvchini ijrodan qo’rqmaslikka, klaviaturani erkin his qilishga va o’z his-tuyg’ularini, tasavvurini musiqa orqali ifodalashga o’rgatadi. Bu esa, o’quvchida ijodkorlikni, mustaqil bo’lishni, musiqaga, cholg’u asbobiga qiziqishni yanada oshiradi.

5.Refleksiya usuli: Refleksiya usuli fortepiano ta’limi jarayonida samarali, mazmunli va ijodiy tus olgan usullardan biridir. Bu usul o’quvchining o’z ijrosi va musiqiy tajribasini anglashiga yo’naltirilgan bo’ladi. O’quvchi asar ijrosidan so’ng o’zida paydo bo’lgan hissiyotlar, fikrlar, qiyinchiliklar va yutuqlar haqida mulohaza yuritadi va bundan o’ziga xulosa chiqarib, o’z-o’ziga baho beradi. Bu jarayon dars davomida og’zaki suhbat, yozma fikr bildirish shaklida olib borilishi mumkin. Refleksiya o’quvchining o’z ustida mustaqil ishlash ko’nikmasini rivojlantiradi, ma’suliyat bilan ishlash ehtiyojini kuchaytiradi. Bu o’z navbatida, o’qituvchi uchun ham dars samaradorligini takomillashtirish va o’quvchining ichki dunyosini o’rganish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida fortepiano mashg‘ulotlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, shuningdek, ularda musiqiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, ijro etish va baholash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Axborot asrida an’anaviy o‘qitish usullarining samaradorligi cheklanganligi bois, ta’lim jarayoniga interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta’lim hamda ijodiy yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. [5].

Pedagogik texnologiyalar fortepiano o‘qituvchisiga dars jarayonini o‘quvchilarning individual psixologik va musiqiy xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, musiqiy obrazlarni idrok etish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga zamin yaratadi. Natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladi, ijodiy izlanish olib boradi va o‘z ustida mustaqil ishlash malakalarini egallaydi.

XULOSA.

Fortepiano darslarida o‘quvchilarning musiqiy-badiiy kompetentligini rivojlantirishda individual, integratsiyalashgan, ijodiy va tahliliy dars shakllaridan foydalanish muhim pedagogik imkoniyat hisoblanadi. Tinglash va tahlil qilish, taqqoslash, assotsiativ fikrlash, improvizatsiya hamda refleksiya usullarini maqsadli qo‘llash o‘quvchilarning musiqiy tafakkuri, estetik idroki, ijodiy qobiliyati va ijrochilik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ushbu usullar bilan uyg‘unlashtirish fortepiano ta’limining samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Rahimov R. O‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash samaradorligini takomillashtirish (musiqa va san’at maktablari misolida): PhD dissertatsiyasi. – Buxoro, 2023. – B. 66.
2. Izbullayeva G. Pedagogika nazariyasi va tarixi. II qism: darslik. – Buxoro, 2023. – B. 83–84.
3. Ikromova D. Fortepiano darslarida talabalar uchun individual yondashuvni shakllantirish // Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. – 2025. – B. 17.
4. Ismailova G.R. Oliy musiqa ta’limida improvizatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – B. 43.

5. Abdullayeva G. Musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // Ta’lim va fan. – 2018. – № 3 (12). – B. 45–50.